

MARMARAK O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI.

Abduahad Ne'matov Axmat o'g'li

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti Aniq va Tabiiy fanlar o'qitish metodikasi
fakulteti Biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Bu tezisda biz marmarak o'simligining tibbiyotdagi ahamiyati va dorivorlik xususiyati haqida ozroq ma'lumot bermoqchi bo'ldik. Chunki hozirgi kunda tabiiy mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Shuning uchun dorivor o'simliklarni o'rganish, ulardan dori-darmon mahsulotlarini tayyorlash, ularning kasalliklarga ta'sir kuchini bilish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.*

Abstract: *In this thesis, we wanted to give some information about the medicinal value and medicinal properties of marmarak plant. Because nowadays the demand for natural products is increasing. Therefore, the study of medicinal plants, the preparation of medicinal products from them, and the knowledge of their effect on diseases are one of the most important topics.*

Аннотация: В этой диссертации мы хотели дать некоторую информацию о лечебной ценности и лечебных свойствах растения мармарақ. Потому что в настоящее время спрос на натуральные продукты увеличивается. Поэтому изучение лекарственных растений, приготовление из них лекарственных средств, познание их действия на болезни являются одной из важнейших тем.

Kalit so'zlar: moychechak, kovrak, limono't, qalampir yalpiz, qizilmiya, za'faron, yaltiroq marmarak, Korolkov marmaragi, xushbo'y marmarak, xivicheimon marmarak, cho'l marmaragi, efir moyi, flavonoidlar, ursol, oleanol kislota, oshlovchi moddalar.

Key words: chamomile, cowberry, lemongrass, peppermint, licorice, saffron, shiny marmarak, Korolkov marmarag, fragrant marmarag, Khivicheimon marmarag, desert marmarag, essential oil, flavonoids, ursol, oleanolic acid, flavoring agents.

Ключевые слова: ромашка, брусника, лимонник, мята перечная, солодка, шафран, мармарақ блестящий, мармараг Корольков, мармараг душистый, мармараг Хивичеймон, мармараг пустынный, эфирное масло, флавоноиды, урсол, олеаноловая кислота, ароматизаторы.

Dorivor o'simliklar – insonlar va hoyvonlarni davolashda, turli hil kasalliklarni oldini olishda va infektion kasalliklarni bartaraf etishda, shuningdek, oziq-ovqat, atirupa va kosmetika sanoatida ishlataladi. Yer yuzida jami dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. O'zbekiston hududida esa 1200 ga yaqin tur dorivorlik xususiyatiga ega.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda dorivor o'simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivori o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta

ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarordagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o‘simpliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda ko‘paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda.

O‘tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o‘simpliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono‘t, qalampir yalpiz, qizilmiya, za‘faron va boshqa dorivor o‘simpliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o‘tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o‘simpliklar xom ashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilindi.

Marmarak.

Marmarak (*Salvia L.*)-ko‘pyillik o‘tlar turkumiga mansub, lekin ayrim turlari gulzorlarda ekiladigan bir yillik manzarali o‘simplik. Marmarakning yaltiroq marmarak, Korolkov marmaragi, xushbo‘y marmarak, xivicheimon marmarak, cho‘l marmaragi (zig‘irak) kabi 5 turi bor. Yaltiroq marmarak (*S.splendens* ver. *Gawl.*) — bir yillik o‘t, bo‘yi 50—80 sm, poyasi tik o‘sadi. Barglari uchburchakli nashtarsimon. Gultoji 50—60 mm. Iyun — oktyabr oylarida gullaydi, gullari sariq, 25–33 mm. Korolkov marmaragi (*S.korolkovii* Rgl. et Schmalh.) — ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 24—50 sm. Ildiz bo‘g‘izidagi barglari nashtarsimon, uchi o‘tkir, dumaloq ponasimon, yashil tukli. Iyun—avgust oylarida gullab urug‘laydi, gullari siyoh rangda bo‘ladi . Tog‘li mintaqalarda o‘sadi. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan. Xushbo‘y marmarak (*S.sclarea L.*) — ko‘p yillik o‘t. Bo‘yi 50—100 sm. Poyasi tik o‘sadi, tepe qismidan shoxlangan. Barglari yashil, ellipssimon-cho‘ziq, yirik burmali, Iyun—avgust oylarida gullab urug‘laydi. Tog‘li mintaqalardagi bog‘larda, tog‘ daralarida o‘sadi. Efir moyli o‘simplik hisoblanadi.

Dorivor marmarak

Bo‘yi 20 50 sm ga yetadigan yarim buta. Tibbiyotda bargi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, ursol va oleanol kislotalar, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Bargining damlamasi burishtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishida, tomoq, og‘iz va milk shilliq pardalari yallig‘lanishida og‘iz chayish uchun qo‘llaniladi.

Efiopiya marmaragi

Bo‘yi 50 100 sm ga yetadigan ikki yoki ko‘p yillik o‘t. Ukraina, Kakaz va O‘rta Osiyo cho‘llarida va tog‘larning quruq qiyaliklarida va boshqa erlarda o‘sadi. Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar va boshqa moddalar bor.

Bolgariyada marmarak barglaridan tayyorlangan damlama gastrit va kolit, oshqozon yarasi, meteorizm, jigar va o‘t pufagi yallig‘lanishini davolashda foydalanishadi.

Damlama quyidagi tartibda tayyorlanadi: maydalangan o‘simplik bargidan 2 oshqoshiq

olinib, 400 ml qaynagan suv quyiladi, 4-6 soat damlab qo'yiladi, har 3-4 soatda 20-30 ml dan ichib turiladi.

Nafas yo'llari shamollaganda marmarakdan oligan efir moyiga ingalyatsiya qilinadi — qaynab turgan suvgaga 1-2 gr moy solinib, bug'ida nafas olinadi.

Polshada marmarakdan shamollahni davolashda keng qo'llaniladi. Soch to'kilishiga qarshi ham ishlatiladi.

Nemislar marmarakni markaziy asab tizimini mustahkamlash uchun, tungi terlashga qarshi ishlatilar ekan.

Avstriyada oshqozon va ichak kasalliklari, halqum shilliq pardasi yallig'lanishi, anginani davolashda marmarak damlamasidan foydalanilar ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Saytlar:

1. www.arxiv.uz
2. www.guldu.uz
3. www.buxdu.uz

Kitoblar:

20. O'.Pratov, L.Shamsualiyeva, E.Sulaymonov "Botanika" Toshkent 2010.
21. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, A.T.Abdullayeva "Botanika o'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi" Toshkent-2018.
22. G.S.Tursunbayeva, G.M.Duschanova, J.S.Sadinov "Botanika" Toshkent 2020.